

## **5-6 YOSHDAGI BOLALARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA OILAVIY MAROSIMLARNING O'RNI**

**РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕРЕМОНИЙ В НРАВСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ  
ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ**

**THE ROLE OF FAMILY CEREMONIES IN THE MORAL EDUCATION OF 5-  
6 YEAR OLD CHILDREN**

**M.Usmanova, JDPI, Katta o'qituvchi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila kichkintoyni asta-sekin kichik ijtimoiy guruhdan katta ijtimoiy hayotga olib chiqish, unga ko'nikma hosil qilishi hamda uning fikr doirasini kengaytira borishga masalalar yoritilgan.

**Аннотация:** В этой статье основное внимание уделяется тому, как семья может постепенно перемещать ребенка из небольшой социальной группы в большую социальную жизнь, развивать навыки и расширять его или ее кругозор.

**Annotation:** This article focuses on how a family can gradually move a child from a small social group to a larger social life, build skills, and expand his or her horizons.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif tashkiloti, ommaviy madaniyat, immunitet, oilaviy marosim.

**Ключевые слова:** дошкольная организация, массовая культура, неприкосновенность, семейный обряд.

**Keywords:** Preschool organization, popular culture, immunity, family ceremony.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017-yilda "Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmonida ham maktabgacha ta'lif muassasalarida yosh bolalarni

milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarni yanada chuqur singdirish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish kabi fikrlar ilgari surilgan.

Xalqimiz farzandlarini doimo tabiatga mehrli bo‘lish tevarak-atrof, suv, havo, tuproq hayvonot olamini asrab-avaylash, insonni oliy qadriyat deb bilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish ruhida tarbiyalagan. Bular haqida ham shunday beboho o‘git va yo‘l-yo‘riqlar, umuminsoniy ahamiyatga molik fikrlar bayon etilganki, ular hozirga qadar ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Bog’cha tarbiyalanuvchilari ongida yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishda oila va tarbiyachi hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida mакtabgacha ta’lim muassasasi bilan uy, pedagogik jamoa bilan ota-onalar hamjihatligi yaxshi samara berishi amalda isbotlangan. Mакtabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilada ota-onalar hamda opa-singillarning ham alohida o‘rinni egallashi bu oiladagi muhutga juda ham bog’liq deb hisoblasak bo‘ladi.

Barkamol avlodning tarbiyasi haqida gapirar ekanmiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Kelajak – bog’chadan boshlanadi” degan fikrlari beixtiyor yodimizga keladi. Darhaqiqat bog’cha bu bolalarimizning ham tarbiyaviy ham intellectual bilimlarning olishilari uchun debocha dargoh hisoblanadi.

Axloq –arabcha xulq atvor ma’nosini bildiradi. U ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs hatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar majmuidir. Axloq-shaxs yoki guruh faoliyatini baholashorqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mehanizmi hisoblanadi.

Mакtabgacha yoshdagi axloqiga jiddiy ta’sir ko’rsatadigan omillardan biri shuki yosh davrdagi bolalar kattalarga taqlid qiladilar. Oilaviy marosimlarda oilada katta yoshdagi insonlarning bir biriga va atrof muhutga, bo‘ladigan voqiylikka bo‘lgan munosabatlari albatta kichik yoshdagi bolalarga ham yo‘jobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shu o‘rinda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida tahsil olishi ham bog’cha va ota-onalar

o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi zarurligini alohida aytsak bo’ladi. Oiladagi tarbiya o’z xususiyati jihatidan boshqa maskanlardagi tarbiyadan ajralib turadi. Bunda asosiy omil ota-onaning o’z farzandlariga muhabbatи va mehrini shunga javoban farzandlarning ota-onasiga nisbatan mehru-oqibatini ko’rish mumkin. Bola, ayniqsa, ilk yoshlarida ko‘proq oilaning ta’sirida bo’ladi. Oila kichkintoyni asta-sekin kichik ijtimoiy guruhdan katta ijtimoiy hayotga olib chiqish, unga ko‘nikma hosil qilishi hamda uning fikr doirasini kengaytira borishga qodir dargohdir. Ushbu jarayonlar davrida oilaviy marosimlarning bola axloqiga ijobiy ta’sirlarini ko’rishimiz mumkin bo’ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o‘rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalari o‘rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni oilaviy marosimlar va urf odatlar orqali yaxshi ishlar qilishga o‘rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e’tiborga olish lozim. Ularga quyidagi tushunchalar ilk yoshidanoq tushuntirib boriladi: bola buni anglay olmaydi, deb hisoblash noo‘rin. Yiqilib tushgan bolani o‘rnidan turishga yordam berish, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o‘yinchog‘ini o‘rtog‘iga berib turish, tik turgan kishiga joy berish, eng muhimi bolaga olilada oilaviy marosimlarda kattalarga bo’lgan e’ribor hurmat va izzatda boshqalarga ko‘rsatilgan xizmatni bola o’z ko’zi bilan ko’rishi uning axloqiy tarbiyalanishida juda katta ijobiy ta’sir qiladi va bu katta o’zgarishlarga olib keladi.

Oilaviy marosimlar xalq ma’naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta’sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo’ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga eag. Xalq an’analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan bosh qalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an’analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.. Ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarmizni, sharqona odobimizni, naslimiz

pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish siz-u bizning qo'limizdadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda ota-onada tomonidan beriladigan e'tibor shu bilan birga oiladagi muhit qolaversa oilaviy marosimlarning nihoyatda katta o'ringa ega ekanligini kundalik turmush hayotimizga singib ketganligidan ham ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. O.Safarov, M.Mahmudov "Oila ma'naviyati" – 2009 yil
2. A.Muxtorov "Mahalla muhiti, oila ma'naviyatida ehtiyoj,manfaat va mafkura uyg'unligi" 2012 yil
3. N.Qayumova. Nizomiy nomidagi TDPU dotsent "Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash". Maktabgacha ta'lif jurnali 01.08.2018 yil
4. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika" Toshkent., 2013 yil
5. Maxfuza Usanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54
- 6 .Maxfuza. (2021). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3063>
7. Maxfuza. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2729>
- 8.Maxfuza. (2021). NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN FITONIMLARNING HOZIRGI KUNDAGI MUQOBILLARINI QIYOSIY O'RGANILISHI . *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2716>
- 9.Maxfuza. (2021). OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO`G'RI TASHKIL QILISH. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>
10. Usanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY MASHG`ULOTLARNING O'RNI. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/147>
11. Usmonova, M. (2021). KICHIK MAKTAB YOSHDAKI BOLANING MOTIVATSIYA SOHASI RIVOJLANISHI: KICHIK MAKTAB YOSHDAKI BOLANING MOTIVATSIYA SOHASI

- RIVOJLANISHI. *Мактабгача таълим журнали*, 2(2). Retrieved from <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/853>
12. Usmonova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARda ESTETIK HIS-TUYG'ULARINI TARBIYALASH .: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARda ESTETIK HIS-TUYG'ULARINI TARBIYALASH . *Мактабгача таълим журнали*, 2(2). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/852>